



SIRDARYO VILOYATI
STATISTKA BOSHQARMASI



**2023- YILDA SIRDARYO
VILOYATIDA TURIZM VA DAM
OLISH RIVOJLANISHINING
ASOSIY KO'RSATKICHLARI**

Sirdaryo viloyatida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari



Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo'lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramay) iqtisodiy samaradorlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan bo'lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan.

Biroq, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ'ib etishda ham samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo'lib, bir ma'noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko'p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko'ra har xil bo'lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo'lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo'nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi roliga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda ularning barchasi turizmning o'ziga xos belgisidir. Faoliyatning turizm sektori qo'shilgan qiymatning eng yuqori ko'rsatkichiga erishishga imkon beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda.

2023- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


Turistik firma va tashkilotlarining hududlar bo'yicha soni, birlik.



2023- yilda qabul qilinganlar soni, kishi




2023- yilda jo'natilganlar soni, kishi




2023- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari, birlik



Hududlar bo'yicha sotilgan sayyohlik yo'llanmalari, birlik

Turistik firma va tashkilotlar xodimlari, kishi




2023- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joy obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yil davomida Sirdaryo viloyatida 17 ta mehmonxonona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 100 % mehmonxonalar, to'g'ri keldi.

Mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar, birlik



Tuman (shahar) bo'yicha mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar soni, birlik



Xonalar 232 ta nomerlar
0,4 ming o'rinlar


Tunab qolishlar soni 69,7 ming birlik



2023- yilda mehmonxonalar va shunga o‘xshash joylashtirish muassasalarda shaxslarni joylashtirish


2023-yil davomida mehmonxonalar va shunga o‘xshash joylashtirish muassasalarga **22,6 ming** kishi joylashtirildi, ulardan **78,1 %** O‘zbekiston fuqarolari, **5,2 %** MDH ga a‘zo davlatlar fuqarolari va **16,7 %** xorijiy davlatlar fuqarolari bo‘ldi.

Joylashtirilgan shaxslar soni



2023- yilda mehmonxonalar va shunga o‘xshash turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **9595** kishi ta‘til, bo‘sh vaqt va dam olish maqsadida, **15050** kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadda, **1516** nafari do‘stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida, **14** nafari ziyorat qilish maqsadida, **758** nafari davolovchi va sog‘lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, **318** nafari ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida kelgan.


Sayohat maqsadi kelgan shaxslarni joylashtirish, kishi




2023- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari obyektlari soni 2 tani tashkil etib, shundan 50 % Yangiyer shahar, 50 % Sirdaryo tumanida faoliyat yuritmoqda.


Hududlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari soni, birlik



Turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari binolari, birlik




Xonalar, ming birlik




2023- yilda shaxslarni ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yil davomida **4852** kishi ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirildi, ulardan **91,2 %** O'zbekiston fuqarolari, **6,0 %** MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari va **2,8 %** xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirilgan shaxslardan **3347** kishi davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, **1505** kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida kelgan.

Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, kishi



Statistikaga oid eslatmalar

Turizm – jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan, vaqtinchalik yashash joyidan (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan chiqib ketishi (sayohat qilishi).

Kirish turizmi kiruvchi sayyohlik safari davomida ushbu mamlakatdagi norezident mehmonning faoliyatini o‘z ichiga oladi. Chiqish turizmi ko‘rilayotgan mamlakatdan tashqarida doimiy yashovchi mehmonning chiqish yoki ichki turistik sayohati doirasidagi faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Turist – vaqtinchalik yashash uchun biron bir mamlakatga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan o‘n ikki oygacha bo‘lgan muddatda vaqtinchalik yashash uchun, daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan, yoki kamida ma‘lum bir muddatga vaqtincha yashash uchun borgan jismoniy shaxs.

Mehmon (ziyoratchi) – boshqa davlatga o‘z kasbiy faoliyatidan daromad olishdan boshqa maqsadni ko‘zlab kelgan shaxs.

Do‘stlar va qarindoshlarni ziyorat qilish – ushbu turkumga qarindoshlar yoki do‘stlarni ziyorat qilish kabi faoliyatlar kiradi; to‘ylarda, dafn marosimlarida yoki boshqa oilaviy tadbirlarda qatnashish; kasal yoki qariyalarga qisqa muddatli g‘amxo‘rlik va boshqalar.

Ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik – ushbu toifaga ish beruvchilar yoki boshqa tashkilotlar/shaxslar tomonidan to‘lanadigan qisqa muddatli kurslarda qatnashish, maxsus o‘quv dasturlarini tamomlash yoki kurslarda ma‘lum ko‘nikmalarga ega bo‘lish, jumladan, pullik o‘qish, til o‘rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ta‘tillar va hokazolar kiradi.

Davolanish va sog‘lomlashtirish muolajalari – ushbu toifaga shifoxonalardan, poliklinikalardan, sanatoriyalardan va tibbiy-ijtimoiy muassasalardan keyingi tibbiy yordam ko‘rsatish xizmatlarini olish, dengizga va boshqa kurortlarga tashrif buyurish, shuningdek, tibbiy maslahat asosida tibbiy yordam olish uchun boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalar kiradi. Tibbiy asbob-uskunalar va xizmatlardan foydalangan holda kosmetik jarrohlik.

Ishga doir va kasbiy maqsadlar – ushbu toifaga yakka tartibdagi tadbirkorlar va xodimlarning faoliyati, agar ularda mamlakatda yoki tashrif buyurilgan joyda resident ishlab chiqaruvchi bilan aniq yoki nazarda tutilgan mehnat munosabatlari belgilari bo‘lmasa, shuningdek investorlar, tadbirkorlar va boshqalar faoliyati kiradi.



**Press-relizlarni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi**



e-mail:info@sirstat.uz



**Manzil: 120100, Guliston sh,
Birlashgan ko'chasi,62**



www.sirstat.uz



Tel: +99867-236-70-00



facebook.com/sirdaryo.viloyati